



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 343.915(045)(575.1)

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGIDA JINOYATCHI SHAXSINING UMUMIY TAVSIFI

Djumabayeva Gulnaza Djanabayevna,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: jumabaevagulnaz08@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5741-7064

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligida jinoyatchi shaxsi tadqiq etiladi. Bunda voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi, uning xususiyati, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining ma'lum qiyofasi ochib beriladi ushbu maqolada. Voyaga yetmaganlar ko'plab sabablar va sharoitlarning o'zaro aloqadorligi natijasida jinoyatlar sodir etadilar. Bular orasida voyaga yetmagan shaxsining o'zi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu shaxsni tavsiflovchi belgilarning xususiyatlari, aloqalar, munosabatlar o'ziga xosligi, jumladan dunyoqarashlar, mayllar, e'tiqodlar, hayot maqsadlari va ulardan kutilayotgan natija, intellektual, hissiy va irodaviy xususiyatlar kabi ma'naviy-ruhiy sifatlar shunda namoyon bo'ladiki, shaxsning jinoyat sodir etishini oldindan va aniq belgilab beruvchi odamlar va shaxs qirralari yo'q. Voyaga yetmagan shaxsning g'ayriijtimoiy xatti-harakatini keltirib chiqaradigan xususiyatlari, birinchidan, o'z asosiga ko'ra ijtimoiy o'zlashtirilgan, ya'ni ma'lum bir turmush tarzi, axloqiy ta'sirlar, aloqalar va shu kabilarning natijasi, ikkinchidan, ular jinoyat sodir etishga o'z-o'zidan, avtomatik ravishda emas, balki muayyan vaziyatni tashqi va ichki sabablari hamda holatlari ta'sirida, har xil xatti-harakat variantlarini tanlash imkoniga ega voyaga yetmagan shaxsning ongi va irodasi ishtirokida sodir etilishiga olib keladi.

Kalit so'z: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, jinoyatchi shaxsi, tavsif, jinoyatchilik omillari, subyektiv omil, obyektiv omil.

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИЧНОСТНОГО ПРЕСТУПЛЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРЕСТУПЛЕНИИ

Джумабаева Гульназа Джанабаевна,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье исследуется личность несовершеннолетнего, виновного в правонарушении. Анализируется личность несовершеннолетнего правонарушителя, его характеристики, специфические особенности несовершеннолетнего правонарушителя. Кроме того, в данной статье раскрывается специфический образ несовершеннолетнего правонарушителя. Преступность несовершеннолетних обусловлена совокупностью факторов и обстоятельств. Среди них ключевую роль играет сам несовершеннолетний. Особенности характеров, характеризующих этого человека, специфика отношений, в том числе мировоззрения, склонности, убеждения, жизненные цели и ожидаемый результат, интеллектуальные, эмоционально-волевые качества, такие как духовно-нравственные качества, проявляются в том, что у лица отсутствуют человеческие и личностные аспекты, предопределяющие и четко определяющие совершение преступления. Признаки, порождающие асоциальное поведение несовершеннолетнего, являются, во-первых, социально усваиваемыми по существу, т. е. результатом особого образа жизни, нравственных воздействий, отношений и т. д., во-вторых, приводят к совершению преступления спонтанно, не автоматически, а под

влиянием внешних и внутренних причин и обстоятельств конкретной ситуации, при участии разума и воли несовершеннолетнего, имеющего возможность выбора различных вариантов поведения.

Ключевые слова: несовершеннолетний, преступление, личность преступника, характеристика, криминальные факторы, субъективный фактор, объективный фактор.

GENERAL DESCRIPTION OF THE CRIMINAL IN JUVENILE CRIME

Djumabayeva Gulnaza Djanabayevna,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article examines the identity of the perpetrator in juvenile delinquency. It analyzes the personality of the juvenile offender, the specific characteristics of the juvenile offender. In addition, this article reveals a certain image of a juvenile offender. Juvenile delinquency is caused by a combination of factors and circumstances. Among them, the minor himself plays a key role. The features that characterize this person, the specificity of the relationship, including worldviews, inclinations, beliefs, life goals and the expected outcome, intellectual, emotional and volitional qualities, such as spiritual qualities are manifested in the fact that there are no people or personality aspects that predetermine and clearly define the crime. The characteristics that give rise to a juvenile's antisocial behavior are, firstly, socially assimilated on its own merits, i.e., the result of a particular lifestyle, moral influences, relationships, etc., and secondly, they lead to the commission of a crime spontaneously, not automatically, but under the influence of external and internal causes and circumstances of a particular situation, with the participation of the mind and will of a minor who has the opportunity to choose different behavioral options.*

Keywords: *juvenile, crime, personality of the offender, description, criminal factors, subjective factor, objective factor.*

Kirish

So'nggi yillarda, shaxsni alohida ijtimoiy tiplarga ajratish va buning uchun asos bo'ladigan xususiyatlar borasida turfa xillik kasb etmoqda. Umuman, shaxsni ma'lum bir tipga ajratishdan oldin, shaxs tushunchasining mohiyatiga to'xtalish zarur. Shaxsga falsafiy, sotsial, psixologik, pedagogik, huquqiy jihatdan ta'riflar berilgan. Shaxs – onglilik va jamiyat oldidagi ma'suliyatning tarixan kelib chiqqan darajasiga ega bo'lgan, o'z ichki xislatlariga muvofiq ma'lum huquq va erkinliklardan foydalanayotgan, shunday huquqqa ega bo'lgan, alohida faoliyati bilan jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan va o'z davri yoxud sinfining qarashlariga mos keladigan turmush tarzi kechirayotgan odamdir [1].

XX asrning 60-yillaridan boshlab ko'plab kriminolog olimlar jinoyatchi shaxsi muammosini faol tarzda tadqiq eta boshladilar [2]. Ba'zi olimlar jinoyatchi shaxsini falsafiy nuqtayi nazardan individ jinoiy faoliyatining mexanizmi, determinatsiyasi [3], boshqalari g'ayriijtimoiy ko'rinishlarning ijtimoiy-ruhiy hodisasi (fenomeni) [4] va o'ziga xos ijtimoiy-ruhiy munosabatlar subyekti sifatida [5], ayrimlari esa turli ko'rinishdagi jinoyatlarning aniq sotsiologik tahlil jarayonida aniqlangan manbai [6] sifatida tadqiq etganlar. Jinoyatchi shaxsini o'rganish aniq huquqiy asosga tayanishi kerak, bunda qonun bo'yicha jinoyatchi deb tan olinadiganlar shaxsi o'rganilishi lozim. Ushbu jihatdan ko'rib chiqilayotgan kategoriya ma'lum vaqt chegaralariga ega.

Material va metodlar

Maqolada tarixiylik, mantiqiy, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning sud tomonidan, sodir etgan jinoyati uchun jazo qo'llanilgan paytdan boshlab, jinoiy jazo o'tab bo'lingangacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Jazoni o'tab bo'lgan odam endi jinoyatchi emas,

shu bois ham jinoyatchi shaxsi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bunda shaxs ijtimoiy-psixologik holati, ya'ni axloqan tuzalgani uchun emas, jazo muddatining tugashi munosabati bilan jazodan ozod etiladi. Agar, axloqan tuzalish deganda ruhiy va axloqiy xususiyatlar tizimining ijobiy qayta shakllanishi va ijtimoiy adaptatsiyaga to'la mos keladigan turmush tarzi sifatida qaralsa, shaxsning haqiqatdan ham axloqan tuzalish jarayoni jazoni o'tab chiqqanidan so'ng ancha vaqt o'tib ro'y berishi yoki umuman amalga oshmasligi mumkin. Ushbu holatda shaxs endi, ijtimoiy xavf tug'diruvchi kishi shaxsiga aylanishi tabiiy [7].

Kriminologiya uchun jinoyatchi shaxsidagi asosiy jihatlar ushbu shaxsning tabiati va mohiyati, undagi g'ayriijtimoiy qirralarning shakllanish manbalari, shakllari va mexanizmlari, muhit yoki jinoyatdan oldingi vaziyat bilan o'zaro aloqada jinoiy xatti-harakatni keltirib chiqaradigan, bir so'z bilan aytganda, jinoyatchidagi jinoyat sodir etilishini izohlab beradigan xususiyatlar majmuidir[8].

Haqiqatdan, jinoyatchi shaxsi tushunchasining ta'rifi o'ziga xos bo'lmagan belgilersiz huquqiy mazmun kasb etmaydi, kriminologiya uchun shaxsning o'zi emas, jinoyatni keltirib chiqaradigan ma'lum bir xislatlari muhim, ya'ni kriminologiya umuman shaxsni emas, jinoyat sodir etgan shaxsni o'rganadi. Lekin, shaxs haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarga to'la asoslanadi. P.S. Dagal jinoyatchi shaxsini jinoiy-huquqiy jihatdan ko'rib chiqar ekan, "jinoyatchi shaxsi – jinoyat sodir etgan shaxsning jinoiy-huquqiy hodisaga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ruhiy va jismoniy belgilari jamidir"[9] deb ta'kidlaydi.

Fikrimizcha, jinoyatchi shaxsi odamdagi g'ayriijtimoiy qarashlar, jamiyat manfaatlariga nisbatan salbiy munosabat va o'z niyatini amalga oshirish uchun ijtimoiy xavfli yo'l tanlash yoki salbiy natijani bartaraf etishda zarur faollik ko'rsatmasligi oqibatida jinoyat sodir etgan kishining shaxsidir.

Shundan kelib chiqib, ushbu masala bo'yicha barcha qarashlarni batafsil tahlil qilmasdan aytish lozimki, kriminologiya fani oldida turgan vazifalarni hal qilish nuqtayi nazaridan huquqbuzar shaxsini «u yoki bu g'ayriijtimoiy qilmishni sodir etgan shaxsni tavsiflab bergan jihatlar, uning ijtimoiy mavjudligi namoyon bo'lishi va g'ayriijtimoiy qilmish sodir etilishini tushunishga yordam beradigan turli tomonlari» tizimi sifatida ta'riflash eng to'g'risidir.

Lekin ta'kidlash lozimki, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, shaxs kriminologik xususiyatlarining shakllanishi va xatti-harakat tarzida amalga oshirilishining umumiy qonuniyatlariga, ushbu jihatlarining ma'lum omillar bilan o'zaro aloqasiga yosh psixologiyasi «o'rnashishi» ham, shuningdek, voyaga yetmaganlar ijtimoiy maqomi, muloqot va hayotiy faoliyat sohasi, faoliyat ko'rsatish muhiti bilan o'zaro aloqasining o'ziga xos xususiyati ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, aytish lozimki, adabiyotlarda jinoyatchi shaxsi tushunchasi umumiy holatda ko'pincha jinoyatchi shaxsiga xos bo'lgan belgilar bilan bir xillik kasb etadi. Shaxsning, jumladan voyaga yetmaganning ongi «turmush bilan o'zaro aloqaning bitta kanali - faqat tashqi muhitning obyektidan subyektga ta'sirigagina emas, balki ikkita kanal, ya'ni tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv, to'g'ri va teskari kanalga ega». Ongning shakllanish jarayonini «tashqidan ichkiga» sifatida ham, «ichkidan tashqiga» sifatida ham mutlaqlashtirish to'g'ri emas. «Tashqi va ichki» birgalikda, xoxlangan va mavjud voqelikning ziddiyati va bu qarama-qarshilik - har qanday psixologik faoliyatni harakatga keltiruvchi kuchdir. G. M. Minkovskiyning fikriga ko'ra, «jinoyatchi shaxsi» tushunchasi jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab mavjud bo'ladi va shaxs axloqan tuzalgani qayd etilgan paytdan boshlab tugallanadi. «Jinoyatchi shaxsi - ijtimoiy og'ishli xulq-atvorga ega shaxsdir». U voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsini ular shaxsining jinoyatlar sodir etadigan o'smirlarni ahvoli voyaga yetmagan qismining aksariyatidan ajratib turadigan, o'zaro va muhit hamda vaziyatning boshqa omillari bilan bog'liqlikda bir-birini hamda xulq-atvorning jinoiy variantlarini tanlab olish va amalga oshirishni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy shakllangan qirralarining xususiyatlari sifatida ta'riflangan [10]. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi bo'yicha quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin: «birinchidan, voyaga yetgan jinoyatchilardagi g'ayriijtimoiy ko'rsatmalar (shaxsning moyillik holati), yo'nalganlikning genezisini ko'pincha voyaga yetmagan jinoyatchi psixologiyasidan «axtarish» lozim, chunki shaxsning fundamental sifatleri shu yoshdayoq

paydo bo' ladi. Ikkinchidan, voyaga yetmaganlarning jinoyatchilik etiologiyasidagi shaxsga oid tomonlar juda yaqqol ifodalanadi. Bu esa voyaga yetmaganlar ongida ularning bevosita muhiti aks etishi xususiyatlarini aniqlashga, shaxsning g'ayriijtimoiy yo'nalganligini shakllantiruvchi sharoitlarni o'zgartirish uchun vaqtida choralar ko'rilishiga katta imkoniyat yaratib beradi. Uchinchidan, ko'rsatilgan toifani ajratib olish, shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilgani kabi voyaga yetmaganlar ruhiyatidagi xususiyatlar va g'ayriijtimoiy qilmishlarda ruhiy qirralarning namoyon bo'lishidagi o'ziga xoslikka asoslanadi».

Voyaga yetmaganlar ko'plab sabablar va sharoitlarning o'zaro aloqadorligi natijasida jinoyatlar sodir etadilar. Bular orasida voyaga yetmagan shaxsining o'zi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu shaxsni tavsiflovchi belgilarning xususiyatlari, aloqalar, munosabatlar o'ziga xosligi, jumladan dunyoqarashlar, mayllar, e'tiqodlar, hayot maqsadlari va ulardan kutilayotgan natija, intellektual, hissiy va irodaviy xususiyatlar kabi ma'naviy-ruhiy sifatlar shunda namoyon bo'ladi, shaxsning jinoyat sodir etishini oldindan va aniq belgilab beruvchi odamlar va shaxs qirralari yo'q. Voyaga yetmagan shaxsning g'ayriijtimoiy xatti-harakatini keltirib chiqaradigan xususiyatlari, birinchidan, o'z asosiga ko'ra ijtimoiy o'zlashtirilgan, ya'ni ma'lum bir turmush tarzi, axloqiy ta'sirlar, aloqalar va shu kabilarning natijasi, ikkinchidan, ular jinoyat sodir etishga o'z-o'zidan, avtomatik ravishda emas, balki muayyan vaziyatni tashqi va ichki sabablari hamda holatlari ta'sirida, har xil xatti-harakat variantlarini tanlash imkoniga ega voyaga yetmagan shaxsning ongi va irodasi ishtirokida sodir etilishiga olib keladi.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsini tadqiq etishda uning tuzilishi haqidagi masala muhim ahamiyatga ega. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining tuzilishini aniqlab olmay turib, jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorining mexanizmini obyektiv va ilmiy tushuntirish mumkin emas.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi, umuman, jinoyatchi shaxsi masalasida huquqshunoslar o'rtasida bir xil fikr mavjud emas.

A.B. Saxarov jinoyatchi shaxsini tashkil qiluvchi belgilarni quyidagicha ajratib ko'rsatadi: a) ijtimoiy-demografik, b) ijtimoiy-psixologik, d) ijtimoiy-biologik [11]. Shuningdek, adabiyotlarda jinoyatchi shaxsi tavsiflovchi belgilar quyidagicha uch guruhga bo'lib o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Jinoyatchilarning: ijtimoiy-demografik va huquqiy tavsifi; axloqiy-ruhiy sifatlar va ijtimoiy mo'ljal; jinoyatchining turli ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy xulq-atvori.

Boshqa adabiyotda ushbu sxema quyidagicha ko'rinishga ega: 1) ijtimoiy demografik va jinoyat-huquqiy belgilar; 2) ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlarida ijtimoiy namoyon bo'lishlar; 3) axloqiy xususiyatlar; 4) psixologik xususiyatlar.

G.M. Minkovskiy voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining quyidagi tuzilishini taklif qiladi:

- 1) demografik belgilar;
- 2) ma'naviy-ma'rifiy darajasi;
- 3) asosiy faoliyatining ehtiyojlari, qiziqishlari, o'zgaralar bilan munosabati;
- 4) ijtimoiy-xo'jalik va dam olish sohasidagi ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlari;
- 5) voyaga yetmagan shaxsning hissiy-irodaviy belgilari, ilgari siljishlar va buzilishlar sintezi sifatida yo'nalganligi va motivatsiyasi.

Xulosalar

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar jinoyatchilarning turli toifalari orasida uchraydigan kriminogen shaxs tipi quyidagi o'ziga xos jihatlarni majmui bilan ajralib turishini ko'rsatdi:

- faol g'ayrihuquqiy va axloqiy ta'sir sharoitida shaxsning shakllanishi, oilada g'ayrihuquqiy xulq-atvor va xatti-harakatlarning kuzatilishi va sh.k.;
- hatto jamiyat va davlat muhiti hamda uning qadriyat va me'yorlar tizimi tomonidan ta'sir o'tkazish choralari ko'rilganidan keyin ham har xil axloqqa zid va g'ayrihuquqiy qilmishlar tizimining mavjudligi;
- jinoyat sodir etish sharoitida shaxsning faolligi va odatda jiddiy sabablar bo'lmagan sharoitda jinoyat sodir etish.

Voyaga yetmagan shaxs mikromuhitining tavsifini, uning jinoyat sodir etishdan oldingi xulq-atvori haqidagi ma'lumotlarni, ongning mazmun tomoni xususiyatlarini hisobga oluvchi kompleks me'zonga asoslanib, qasddan jinoyat sodir etuvchi o'smirlarning uch tipi: izchil kriminogen, situativ kriminogen va situativ tiplari qayd etilgan.

Izchil kriminogen tip. Ushbu tip vakillarining jinoiy xulq-atvori odatdagi xulq-atvor tarzidan kelib chiqadi va subyektning qarashlari, ijtimoiy mo'ljallari va moyilliklari bilan belgilanadi. Odatda, mazkur shaxs jinoyat sodir etish vaziyatidan nafaqat foydalanadi, balki uni faol yaratadi. Ushbu tip vakillari zarur holda muayyan muhitni o'zlariga «moslashtirish»ga qodirlar. Ularning jinoiy xulq-atvori izchil kriminogenlik shakllangan bosqichdan boshlab nisbatan erkin xususiyat kasb etadi.

Vaziyatga bog'liq kriminogen tip. Ziddiyatli mikromuhitda shakllanadi va faoliyat olib boradi; jinoyat ko'p jihatdan uni sodir etishning ma'naviy va huquqiy nuqtayi nazardan salbiy holati bilan belgilanadi. Ayni holda shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shaxsni jinoyatga u qo'shilgan mikro-muhit, uning oldingi turmush tarzi olib keladi.

Vaziyatga bog'liq tip. Mazkur shaxs ongi va xulq-atvorining, shuningdek u qo'shilgan mikromuhitning axloqqa zid unsurlari ahamiyatsizdir. Jinoyat mazkur shaxs aybi bilan yuzaga kelmagan, uning uchun ma'lum darajada g'ayrioddiy va boshqa subyektlar bilan birgalikda axloq va huquq normalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatning hal qiluvchi ta'siri natijasida sodir etiladi.

Qayd etish kerak, yuqoridagi ko'rsatilgan huquqshunoslar tomonidan jinoyatchi shaxsini tavsiflovchi turli shakllar va sxemalarga ajratilishi, jinoyatchi shaxsini tavsiflashni to'liq qamrab olmaydi chunki, inson shaxsini tavsiflovchi barcha belgilarni ma'lum bir qoliplarga tushirib bo'lmaydi. Ma'lum bir maqsad yo'lida shaxsda mavjud bo'lgan barcha komponentlar jamlikda harakat qiladi. Shuning uchun kriminologiyada dunyoqarashlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlar, odatlarning g'ayriijtimoiy yo'nalganligi ma'lum bir jinoyatning sodir etilishiga sabab sifatida o'rganiladi. Shuningdek, kriminologiyani xuddi psixologik xususiyatlar kabi axloqiy belgilar, qadriyatlarga yo'nalganlik va shunga o'xshash xislatlar qiziqtirib keladi. Ammo, faqatgina ushbu uslublarga tayanadi degani emas, qolgan shakllar ham hamohanglikda o'rganiladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining barcha xususiyatlarini bilish va hisobga olish kerak, chunki ular individual xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi hususiyati jihatidan voyaga yetgan jinoyatchi shaxsidan keskin farq qiladi shu sababdan ham uni aniq shakilga solib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Тугаринов В.П. Личность и общество. М., 1965. С. 88.
2. Сахарова А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. М., 1961;
3. Кудрявцев В.Н. Причинность в криминологии. М., 1968.
4. Яковлев А.М. Преступность и социальная психология. М., 1971.
5. Джекебаев У. С. О социально-психологических аспектах преступного поведения. Алма-Ата, 1971.
6. Криминология и профилактика преступлений. М., 1989. С. 98.
7. Антонян Ю.М. Изучение личности преступника. М., 1982. С. 10.
8. Дагель П.С. Учение о личности преступника в советском уголовном праве. М., 1972. С. 15.
9. Миньковский Г.М. Личность несовершеннолетнего преступника и современные проблемы борьбы с преступностью несовершеннолетних в СССР. М., 1972. С. 23-24.
10. Сахаров А.Б. Учение о личности преступника Сов. гос. и право. М., 1966. С. 64-70.
11. Абдурасулова К.Р., Умирзаков Б.А. Криминологическая характеристика и профилактика преступности несовершеннолетних в республике Узбекистан. Вопросы криминологии, Криминалистики и судебной экспертизы. 2019. № 2 (46). С. 50-55.
12. Филимонов В.Д. Общественная опасность личности преступника. Томск, 1970.
13. Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. Л., 1968.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.